



## GRAMMATIK MATERIALLARNI TANLASHNING ROLI

***Darvishova Gulchehra Kenjabayevna***

*Filologiya fanlari bo'yich falsafa doktori, (PhD)*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti*

Grammatikaning tanlash birligi butunlay o'zgacha metodik tushuncha bo'lib, grammatik hodisaning yasalishi, ma'nosi va qo'llanishi alohida-alohida grammatik birlik hisoblanadi, xatto mikroqo'llanish, mikroma'no va mikroshakl tushunchalari ilmiy tadqiq qilingan emas. Til fe'lining hozirgi zamon shaxs shaklining har qaysisi alohida grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Ushbu fe'l zamonining bir qancha qo'llanish holatlari ham bor. J.Jalolov fikriga ko'ra mikroshakl, mikroma'no va mikroqo'llanish grammatika tanlash birligi deb tan olinadi.<sup>1</sup>

Aktiv grammatik minimumni tanlash mezonlari:

1. Grammatik hodisaning og'zaki va yozma nutqda keng tarqalganligi mezoni. Barcha grammatik material ichidan kishilar nutqida tez-tez uchraydigan hodisalar «terib» olinadi.

2. Namuna bo'la olish mezoni. Ushbu mezonga ko'ra tanlangan grammatik birliklar asosida, ularga andaza sifatida qarab, ko'pdan-ko'p yangi grammatik hodisalarni hosil qilish imkoniyatini yaratish talab etiladi. Demak, imkon boricha katta miqdordagi leksika qo'llanilishini ta'minlay oladigan hodisalar mazkur minimumga kiritiladi (mas: suffiks yordamida ot, sifat, ravishning yasalishi).

3. Ma'nodosh hodisalarni yakkalash mezoni. Qiyinchiliklarning oldini olish maqsadida grammatik sinonimiya tarkibidagi eng ko'p qo'llanadigan va uslub jixatidan xolis birlik saylab olinadi, ya'ni grammatik sinonim hodisalar sirasidan biri tanlanadi.

Grammatik materialning taqsimoti funksional (ya'ni nutqdagi vazifasiga ko'ra) yondashishni talab etadi. Grammatika gapdan kichkina bo'limgan kommunikativ (nutqiy muloqot) birliklarda taqsim etiladi. Nutq namunasi bunday taqsimot birligi vazifasini bajaradi. Nutq namunasi nutqning hamma tomonini — leksika, grammatika, talaffuz va grafik jixatlarini o'zida mujassamlashtiradi, binobarin nutq namunasi grammatik materialni taqsim qilishda o'zlashtirish birligi hisoblanadi. Grammatikaning leksika bilan o'zaro aloqasini hisobga olish mezonidan foydalilanadi. Leksikaning birlamchiligi nazarga olinadi, bu xil grammatik birliklar taqsimotiga o'zaro ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

<sup>1</sup> Jamalov J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik.—O'qituvchisi, 1996. – 152. b



Leksik material tasnifida ta'kidlanganidek, grammaticada ham o'rganiladigan hodisalar turlarga ajratiladi. Oson qiyin o'zlashtirish tafsilotlari izchil qarab chiqiladi, qiyinchiliklarni aniqlash va uning oqibatida tasnif qilish ushbu hodisalarni o'rgatish tizimini yaratishga, o'rgatishning metodik usullarini ishlab chiqish va materialni o'zlashtirish vaqtini belgilashga imkon yaratadi. Grammatik material tasnifi – o'zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklar tasnifi deyilsa ham bo'ladi.

Ilmiy-metodik izlanishlar dalolat berishicha, o'zbek va rus tillari hamda chet tillar muasasasi tahlili o'xshash grammatic hodisalar anchagina kuzatiladi. Mas: 1) o'quvchi o'rganayotgan uchala tilda ham monand gapdagi so'z tartibi, so'z birikmasi shakli, so'z yasalishi andazasi kabilar mavjud (formal o'xshashlik);

2) uchala tilda xam tasdiq so'roq inkor, modallik kabi grammatic ma'nolar borligi aniq. (ma'noviy umumiylilik);

3) ish-harakat takrorlanib turishini, davom etishini, tugallanganligini bildiradigan fe'l zamonlari qo'llanadi (qo'llanilishdagi moslik).

O'quvchi o'rganayotgan uchala tilda grammatic o'xshashliklar mavjudligi muallimni xom hayollarga chalg'itmasligi kerak. Chunki tafovut qiiladigan hodisalar juda ko'pligi bilan turli chalkashliklar binobarin, qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shu qiyinchiliklarni tasnif etish nihoyatda dolzarb metodik masaladir. Birinchi tasnif chet til grammaticasining og'zaki nutq va o'qish uchun ajratilishida namoyon bo'ladi. Grammatic qiyinchiliklarning tasnifida tillararo va til ichki interferentsiyasi (lot. Inter orasida, ichida Q ferens (ferentis) ko'chiruvchi, o'tkazuvchi degan ma'noni anglatadi. Tillararo qiyinchiliklar manbaini, masalan: chet tildagi gapning ikki tarkibliligi, fe'l ishlatilishi shartligi, so'z tartibining turg'unligi, fe'l shakllarining yasalishidan izlash mumkin. Til ichki qiyinchiligi sabablari ham o'rganilganmas. shakldoshlik (ingl. — ey o'tgan zamon shaklini, o'tgan zamon sifatdoshini, otdan yasalgan sifatni ifodalashda ishtirok etadi); ko'p ma'nolilik («bo'lmoq», «ega bulmoq» fe'llariga monand fe'llar Ovrupo tillarida yetakchi-mustaqlil ma'noda kelib, murakkab zamonlar yasashda esa yordamchi fe'l va modal fe'l sifatida ishlatiladi); tovush va yozishda shakldosh, biroq, ma'nosи bo'lakcha grammatic hodisalar, masalan: (perfekt yasalishidagi yordamchi fe'llar).

I. Yoqubov, grammatic materialni quyidagicha taqsimlagan: Alovida ta'kidlash kerakki, metodikaga oid darslik va qo'llanmalarda til materialini, minimumni taqsimlash muammolari deyarli muhokama qilinmaydi o'qitish o'zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun chiqarilgan «O'qituvchi kitobi»da bu to'g'risida ayrim fikrlar bayon qilingan.



Grammatik materialni taqsimlashda quyidagi mezonlardan kelib chiqadi: berilgan mavzu bo'yicha nutq talablarining qondirilishi; qiyinchiliklarni bir-biridan ajratilgan holda berilishi; yangi materialni bir me'yorda kiritilishi; yangi grammatik materialning mustaqil ravishda ma'nosini ochish uchun kontekstlarda kiritilishi

Kuzovleva V.P. va boshqalar qalamiga mansub «Fly High7» o'quv-uslubiy kompleksi hozirgi kunda ko'pgina maktablarda qo'llanilib kelmoqda. Uning asosiga “Chet tiliga kommunikativ o'qtishning dasturiy-kontseptsiyasi” qo'yilgan.

Mazkur O'MKning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning asosiga qo'yilgan o'qitish texnologiyasi hamma uchun qulay bo'lib, hammaga va rivojlanish darajasiga qarab barcha o'quvchilar uchun mos bo'lib hisoblanadi. Bu individuallashtirish, shuningdek chet el madaniyatini egallahga bosqichma bosqich kompleks yondoshuv printsipining amalga oshirilishi samarasi o'laroq amalga oshirildi. Yangi grammatik materialni berish usuli

Modelni idrok qilish taqdimot jarayonida amalga oshib, uni modelni amalda ifodalash, nutqda amal qilishini ko'rsatish sifatida ifodalash mumkin. Masalan, “Second Conditional” mavzusining taqdimoti quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

Mashg'ulotning maqsadi aniqlanadi: «We already know what Englishmen usually say, when they want to express a real condition. Today we'll learn to express unreal condition in a way Englishmen do.» « I am a teacher and I work at school. But if I **were** a doctor I **would work** in a hospital. If I **were** a taxi-driver I **would spend** the whole day driving around the city.” (bunda majhul nisbat shakli ovoz bilan ajratiladi). Taqdimot quyidagi gap bilan tugatiladi: “ But that was only my dream. Unfortunately, I am not a doctor and I am not a taxi –driver.”

Shunday qilib, yangi grammatik materialning taqdimoti oldindan o'quvchini tinglab ko'rishdan boshlanadi. Basharti oldindan tinglab ko'rish to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa va o'quvchilar bir xil turdag'i so'zlarning mohiyatini va ular nima maqsadda ishlatilganini tushunsalar, bu grammatik ko'nikma sifatida nutq stereotipining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Tinglash buning ustiga ichki gapirib qaytarish bilan amalga oshiriladiki, bu o'z navbatida mazkur tamoyilning mustahkamlanishi uchun xizmat qiladi.

Materialni berishning boshqa varianti quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: avvaldan eshitib ko'rish uchun murakkab va katta hajmga ega bo'lган matn taqdim etilib, u to'liq holda berilayotgan grammatik hodisaning vazifasini aks ettiradi. Biroq, matn o'quvchilar tomonidan eshitish orqali qabul qilinsada, ular oldida mazkur matnning yozma varianti turadi. Shunday qilib, eshitish jarayoni bir vaqtning o'zida ham qaytarish va o'qish orqali amalga oshiriladi. **Present Perfect** va **Present Perfect**



**Continuous** ni o'zaro taqqoslash uchun taqdim etishda quyidagi dialog taqdim etilishi mumkin:

**Betty** Tudor's life-long passion is driving, but there is one problem, as our interviewer found out.

**Interviewer:** How long have you been trying to pass your driving test, **Betty**?

**Betty:** Seventeen years. **Interviewer:** How many times have you taken it?

**Betty:** Thirty-eight, and I'm afraid I've failed it every time. I've always wanted to be able to drive , and I'm determined to pass.

**Interviewer:** I suppose you've been taking lessons all the time? **Betty:** That's right.

**Interviewer:** How many have you had?

**Betty:** Over two hundred and seventy. It's cost me about two thousand pounds already. I'm taking the test again next week.

**Interviewer:** I hear you are saving up to buy your own car now. How long have you been saving? **Betty:** Since 1982 Interviewer: And how much have you saved?

**Betty:** Over 4 000 pounds, and that's enough to buy a nice little second-hand car.

**Interviewer:** Well, all the very best with your next test. **Betty:** Thank you.

Dialog berilganidan so'ng o'tilgan grammatik hodisaning shakli va vazifalarini aniqlash maqsadida bir qator savollar beriladi:

Underline with a solid line .....the examples of the Present Perfect. Underline with a broken line ..... the examples of the Present Perfect Continuous. Why does the interviewer ask : How long have you been saving? But: How much have you saved?

Shunday qilib, aytish mumkinki, grammatik materialni taqdim etish jarayoni amaliy jihatdan amalga oshirilib, nutqning grammatik tomoni bilan bog'liq asosiy qoidalarga tayanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Jalolov J.J. "Chet til o'qitish metodikasi" Toshkent. O'qituvchi 2012.
2. Рогова, Г.В., Рабинович, Ф.М., Сахарова, Т.Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе/ Г.В. Рогова, Ф.М. Рабинович, Т.Е. Сахарова – М.: Просвещение, 1991. – 351 с.
3. Фадеева С.А., Юсупов В.О. “Идея коммуникативной лингвистики в коммуникативной методике”// РYAIII .- 2000.- № 4
4. Harmer J. “Teaching and Learning Grammar”, Longman Group UK Limited 2007
5. Richards J.C., T.S. Rogers “Approaches and Methods in Language Teaching”, Cambr. Univ.Press, 2020



6. Khasanova, D., Ulmasbaeva, M., & Ikanova, L. (2019). IT IS TIME TO CHANGE THE SUBJECT MATTER OF ENGLISH AT VOCATIONAL COLLEGE. EPRAInternational Journal of Multidisciplinary Research, 48-52.
7. Musayeva, S. I. (2023). PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF CADETS' INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE THROUGH ENGLISH LANGUAGE TEACHING. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(22), 46-50.
8. Дарвишова, Г. К. (2022). По Педагогическом Мастерстве Учителя Иностранного Языка В Процессе Урока. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 122-125.
9. Дарвишова, Г. К., & МАХОРАТ, Ш. Б. А. Б. ORIENSS. 2022.№ Special Issue 26. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sharlotta-bronte-asarlarida-badiiy-ma-orat> (дата обращения: 10.10. 2023).
10. Туйчибаева, Ш. Ш. (2023). ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И СРЕДСТВ НАГЛЯДНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. World scientific research journal, 13(1), 126-140.
11. Умарова Ф. З. КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ–ВАЖНОЕ ПРЕИМУЩЕСТВО БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 28. – С. 429-434.
12. <http://www.aitech.ac.jp/iteslj>